

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**UNIVERSITETI**  
**O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**  
**O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI KAFEDRASI**

# **REFERAT**

**MAVZU: A. Qodiriyning “O'tkan kunlar” asari va nutq odobi**

**Bajardi: Boymurodov S.**

**Tekshirdi: Muhiddinova B.**

**SAVARQAND - 2015**

# **A. Qodiriyning “O’tkan kunlar” asari va nutq odobi**

## **Reja**

### **I. Kirish.**

Nutq odobi va nutq madaniyati fani haqida.

### **II. Asosiy qism.**

2.1. A. Qodiriyning hayoti va ijodi.

2.2. A. Qodiriyning „ O’tkan kunlar asari haqida.

2.3. A. Qodiriyning „ O’tkan kunlar ” asarining qisqacha bayoni.

2.4. Asarda qo’llanilgan stilistik figuralar (troplar, arxaizmlar, istorizmlar, valgarizmlar, varvarizmlar, shevalar).

### **III. Xulosa.**

3.1. Asarning badiiy, tarixiy, tarbiyaviy ahamiyati.

### **IV. Adabiyotlar ro’yxati.**

## Nutq odobi va nutq madaniyati fani haqida

Mavjud lingvistik adabiyotlarda notiq, notiqlik san'ati, voiz, voizlik, voizlik san'ati kabi tushuncha va atamalarga duch kelamiz. Xalq orasida: so'zga chechan, so'zga usta, so'z ustasi, so'zamol, so'zamollik, so'zni boplaydi, gapni do'ndiradi, gapga usta, chiroyli gapiradi singari iboralar bor. Keltirilgan so'z va iboralarning barchasi inson nutqining, inson nutqi kamolotining darajasini, umumiy jo'n nutqdan farqlanadigan nutq namunalarini ifoda qiladi. Hamma ham agar u nutqiy nuqson bilan tug'ilmasa gapiradi. Ammo hamma ham bir xilda gapga chechan, o'ta chiroyli gapiruvchi bo'lavermaydi. Nutqiy chechanlik - notiqlik alohida qobiliyatdir. Mumtoz ma'nodagi notiqlik - bu alohida favqulotda nutqiy san'atdir. Chinakkam notiqalar notiqlik mahoratiga tabiiy qobiliyat bilan bir qatorda o'z tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishadilar.

O'tmish va o'tmishga oid adabiyotlarda alohida nutqiy mahorat bo'lgan notiqlik ko'rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan farqlanilgan. Chinakkam san'at, alohida qobiliyat ma'nosidagi notiqlik barcha kishilar uchun ham xos bo'lmagan.

Har qanday nutq «notiqlik» namunasi (san'at sifatida) va uning egasi chin ma'noda «notiq» (san'atkor ma'nosida) degan gap emas. Notiqlik qadimiy davrdan beri alohida mahorat, san'at sifatida insondagi maxsus, noyob qobiliyat tarzida talqin etib kelinadi. Shu tufayli notiqlikni (ular orasidagi bog'liqlikni inkor etmagan holda) nutq madaniyatidan farqlash lozim. Har qanday og'zaki nutq shakli nutqiy mahorat ma'nosidagi notiqlik bo'lavermaydi. So'zlash madaniyati haqida gap yuritiluvchi va hatto lektorlar, targ'ibotchilar (bular orasida ham haqiqiy ma'nodagi notiqalar kam uchraydi) mo'ljallangan asarlar ham bizningcha, «Notiqlik san'ati» nomi bilan atalavermasligi kerak.

O'zbek tilshunosligi va san'atshunosligida notiqlik san'ati va uning o'tmishi yetarli ishlangan emas. Shu tufayli o'tmish Sharq notiqligi bilan hozirgi ma'nodagi nutq madaniyati sohasi orasidagi ko'pgina o'xshash hamda farqli tomonlar biz uchun qorong'udir. Nutq madaniyati sohasi va uning maqsadini ommaga yetkazishda o'tmish notiqligining ijobiy tomonlaridan keng foydalanish zarur. Ushbu notiqlikning ko'pgina ko'rsatmalari, qoidaviy holatlari, taniqli notiqalarning shaxsiy qobiliyat va faoliyatlari nutq madaniyatini tarbiyalashda yaxshigina namunaviy tashviqot quroli bo'lishi mumkin. Bu masala S.Inomxo'jayevning «O'tmish sharq notiqligi» kitobida yaxshi ko'rsatilgan.

Ma'lumki, notiqlik san'atida tinglovchini, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiq nutqi chiroyli, jozibali bo'lishi shart. Chiroylilikka erishish uchun nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jumlar jimjimadorligiga katta e'tibor beriladi. Ushbu ma'noda mana bu satrlar ancha o'rinli aytilgan: «Notiqlik avvalo chiroyli gapirishdir. Ammo nutqning faqat chiroyli bo'lishi hali yetarli emas, har qanday be'mani safsatalarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi».

G.O.Vinokur o'zining «Kultura yazika» asarida nutq madaniyatining notiqlik bilan bog'liq tomonlariga alohida to'xtaladi: «Notiqlik nutqi deganda men har qanday monologik og'zaki nutqni emas, balki tinglovchilarni ma'lum harakatga

chorlovchi yoki ularda qandaydir g'oyalar, tasavvurlar tizimini uyg'otishga qaratilgan maxsus vazifa bajaruvchi nutqni tushunaman».

Hozirgi kunda notqlik tushunchasi va notiq atamasi alohida mahorat va san'at ma'nosida emas, balki jo'n, ommaviyroq ma'noda tushunilmoqda va qo'llanmoqda. Hozirda nutq so'zlagan har qanday shaxsni notiq deb yuritiladi. Natijada notiq atamasi o'z asl ma'nosidan uzoqlashdi va u rasmiy yoki norasmiy so'zga chiqqan har bir nutq egasini anglatadigan bo'ldi.

Notiq va notqlik tushunchalari doirasining bunday kengayishi, ommaviylashuvi notqlik san'ati sohasi haqida yozilgan ilmiy ishlarda ham «notqlik» va «notqlik san'atini» oddiyroq va kengroq ma'noda tushunish va tushuntirishga olib keldi. Bunga ko'ra, notqlik san'ati endilikda qandaydir nutqiy mahorat (noyob qobiliyat, san'at) emas, balki har qanday odam egallashi mumkin va lozim narsa sifatida talqin etiladi.

Keltirilgan mulohazalardan keyin nutq madaniyati bilan notqlik san'ati orasidagi munosabatni belgilash muayyan qiziqish uyg'otishi aniq.

Nutq madaniyati va notqlik san'ati umumiy, o'xshash tomonlarga ega. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi kishilar nutqiy faoliyatining foydali, ta'sirchan, o'tkir bo'lishi uchun ko'rashadi, insonning nutqiy madaniyatini uning nutqiy hayotini o'stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham notqlik ham nutqiy odob, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlangan holda ish ko'radi. Ammo shunga qaramasdan bizningcha nutqiy san'at ma'nosidagi notqlikni, ya'ni favqulodda nutqiy mahorat va qobiliyat bo'lgan notqlikni ommaviy nutq (notqlik) dan farqlash lozim.

Ba'zi shaxslarda uchraydigan notqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir. Notqlikda qobiliyat va mahoratning mehnat bilan qo'shilib ketganini ko'rish mumkin. Har bir xalqning o'tmish madaniy hayotida bu xalqdan yetishib chiqqan va chin ma'noda notiq degan mo'tabar nomga sazovor bo'lgan shaxslarning unchalik ko'p emasligi ham aslida ana shu omil tufaylidir.

Nutq madaniyati tushunchasi aynan notqlik san'atining o'zi emas, ammo u notqlik mahoratiga nisbatan olganda, qandaydir o'ta oddiy tushuniluvchi hodisa ham emas.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati va notqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning maqsadida ish ko'rish qurolining umumiyligida ko'rinadi. Ammo shunga qaramasdan nutq madaniyati tushunchasi bilan notqlik tushunchasi aynan bir narsa emas. Ular orasida ba'zi muhim farqli tomonlar, belgilar bor. Bular quyidagilardir:

1. Nutq madaniyati chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning me'yorlari bilan bog'liqdir. Notqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum lahja yoki shevada ham chinakam notqlik san'atini namoyish qiluvchilar uchraydi. So'zga

chechanlik, notiqlik til materialining xarakteriga qarab emas, nutqning ta'sirchanligiga, nutqiy san'atga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik - bu nutqning og'zaki shaklidir. Notiqlik san'ati - og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir.

3. Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko'zda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi, orzusi barchaning, butun xalqning nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Mumtoz ma'nodagi notiqlik esa alohida shaxslarning nutqiy mahoratini, san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan, nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadga safarbar qilishni ko'zda tutadi. Ya'ni notiqlik san'atida tinglovchilarni ma'lum maqsadga jalb qilish asosiy o'rin tutadi.

4. San'atkor notiq nutqi asosan ko'pchilik tinglovchiga keng auditoriyalarga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni birdan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni o'z ichiga qamraydi.

5. Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan so'zamol shaxs bo'lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san'atkor ma'nosidagi notiq bo'lmasligi, bo'la olmasligi mumkin. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart.

6. Nutq madaniyati ko'pchilikni, keng xalq ommasini ko'zda to'tib ish ko'ruvchi sohadir. Bu ma'noda nutq madaniyati keng omma uchun mo'ljallangan talabdir, ammo notiqlik - bu avvalo qobiliyat, shaxsiy qobiliyatdir. Alohida san'atkorlik ma'nosidagi notiqlik nutqiy san'atni, nutqiy go'zallikni hisobga oladi. Nutq madaniyati esa kishilarning barchasini san'atkor notiq qilishni ko'zda tutmaydi. U asosan, ona tilida yoki o'zga bir tilda to'g'ri, madaniy gapira olish va yoza olish faoliyatini tarbiyalashni maqsad qilib oladi.

7. Nutq madaniyati - bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiy tilni va uning me'yorlarini o'rganish va bu me'yorlarni qayta ishlash ishi bilan shug'ullanadi. Notiqlik san'ati esa bunday ilmiy - me'yoriy faoliyatni ko'zda tutmaydi.

8. Notiqlik, ko'proq nutqning mazmuniga mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga e'tibor qiladi, nutq madaniyati sohasi esa ko'proq nutqning til qurilishi - lisoniy tuzilishiga e'tibor qiladi.

9. Notiqlik, asosan, aniq bir shaxs - notiq yoki guruhlar -notiqlar nutqi haqida qayg'uradi. Bunda u notiqni tinglayotganlar, ya'ni keng ma'noda tinglovchilar ommasi nutqini ham ko'zda tutmaydi. Nutq madaniyati esa, bundan farqli ravishda umuman kishilarning nutqiy faoliyatini, nutq madaniyatini ko'zda tutadi. Shu sababli nutq madaniyati maqsadiga ko'ra va nutqiy faoliyati nuqtai nazaridan keng maqsadli soha notiqlik esa tor sohasidir.

10. Notiqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash sxemasi va rejasini bermaydi va bu tip nutq doimo ham oldindan tayyorlangan, tayyorgarlik qurilgan nutq emas, nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a'zolarini ona tili, ya'ni adabiy til

boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosi talabiga ko'ra o'rinli foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma aslida har qanday san'atkor notiq uchun ham zarur.

11. Notiqlik va notiqlik san'ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida hali yosh va yangidir.

## **2.1. Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi**

Abdulla Qodiriy (asosiy taxalluslari: Qodiriy, Julqunboy (1894.04.10-Toshkent-1938.10.04)-20-asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi; 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Bog'bon oilasida tug'ilgan. Otasi Qodirbobo (1820-1924yy) xon, beklar qo'lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida (1865y) Toshkent mudofaasida qatnashgan. Otasi boshidan o'tgan sarguzashtlar Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan tarixiy romanlarining yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan. Abdulla Qodiriy musulmon maktabida (1904- 1906yy), rus-tuzem maktabida (1908-12yy), Abulqosim shayx madrasasida (1916-1917yy) ta'lim oldi; Moskvadagi adabiyot kursida (1925-26) o'qidi. Yoshligidanoq qadimgi Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan; arab, fors va rus tillarini o'rgangan. Jahon adabiyotini ixlos bilan mutolaa qilgan. Oilasi kambag'allashganligi sababli bolalikdan mustaqil mehnat qila boshladi, turli kasblarni egalladi, mahalliy savdogarlarga, kotiblik va gumashtalik qildi (1907-15). 1917 yil Oktabr to'ntarishidan so'ng Eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetaning muharriri (1919), Kasabalar sho'rosining sarkotibi (1920), «Mushtum» jurnal tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi (1923-26). Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. „Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan „Yangi masjid va maktab”, sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibning matbuotdagi dastlabki chiqishi edi. Oradan ko'p o'tmay, uning „To'y”, „Ahvolimiz”, „Millatimga”, „Fikr aylagil” kabi she'rlari, „Baxtsiz kuyov” dramasi, „Juvonboz” hikoyasi chop etiladi (1914-15yy). Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalari bo'lgan bu asarlar millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgandir. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyib so'zlaydi, millatni uyg'onishga da'vat etadi, fikrlashga chorlaydi. Abdulla Qodiriyning „Uloqda” hikoyasi (1916y) avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, 20-asr tongidagi o'zbek realistik adabiyotining cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Abdulla Qodiriyning 1917 yil Oktabr to'ntarishidan keyingi faoliyati asosan matbuot bilan bog'langan. Uning 1919-25 yillar oralig'ida yozgan maqolalari soni 300 atrofida. Abdulla Qodiriyning publitsistik chiqishlari avvalo, o'sha davrning tarixiy hujjati, zamonasining solnomasi. 20-yillar o'rtalarida yozilgan „Kalvak hayotdagi, odamlar tabiatidagi muayyan salbiy hodisalarni sof mafkuraviy nuqtai nazardan turib, nuqul bir-yoqlama qoralash, fosh etish yo'lidan bormay, xarakter va hodisalarni xolis turib, murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatishga jazm etadi. Abdulla Qodiriy sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida

qizg`in jurnalistik faoliyati bilan barobar o`zbek adabiyotidagi birinchi roman - „O`tkan kunlar”ni yaratdi (1919-20yy). Romandan boblar 1922-yil „Inqilob” jurnalda e`lon qilindi. 1924-26 yillari har bir bo`limi alohida-alohida kitob holida bosildi. „O`tkan kunlar” yaratilgan davr o`zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o`rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy mamlakatimiz taraqqiyparvar ziyolilari safida turib ona yurtning, millatning taqdiri ustida astoydil qayg`urdi, o`zicha najot yo`lini izladi. Avvaliga u bolsheviklarning yolg`on va`dalariga ishondi, ammo adib bu va`dalar qog`ozda qolib ketayotganini, yovuz mustamlaka siyosati mohiyat e`tibori bilan o`zgarmay qolayotganini, munofiqona tus olayotganini, el orasida buzg`unchilik, fitna, sinfiy-mafkuraviy adovat avj oldirilib, birodarkushlik urushi boshlanib ketganligini, sho`rlik xalq bu qonli siyosatning qurboni bo`layotganini o`z ko`zi bilan ko`rdi. Ayniqsa, Qo`qon muxtoriyatining tor-mor etilishi ko`pgina hur fikrli ziyolilar qatori Abdulla Qodiriyning qalbini larzaga soldi. Adib „O`tkan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg`otmoqchi bo`ldi, „tariximizning eng kir, qora kunlari” - yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi „xon zamonlari” 19-asr o`rtasidagi mudhish tarixiy jarayonlar haqida so`z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo`ldi.

### **A.Qodiriyning “O`tkan kunlar ” asari haqida**

O`tkan kunlar... Xalqimizning o'tkan kunlari... Bu asarni sevib o'qimagan, asar asosida suratga olingan filmni ko'rib zavqlanmagan adabiyot shaydosi bo'lmasa kerak... “O'tkan kunlar” garchi muallif yozganidek, yangi zamon ro'monchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havas bo'lsa-da, hali shu kunga qadar o'zbek adabiyotida unga yetadigan asar yaratilmadi...

*“Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi “xon zamonlari”dan belguladim”.*

### **Abdulla Qodiriy (Julqunboy)**

Abdulla Qodiriy sho`ro hokimiyatining dastlabki yillarida qizg`in jurnalistik faoliyati bilan barobar o`zbek adabiyotidagi birinchi roman - „O`tkan kunlar”ni yaratdi (1919-20yy). Romandan boblar 1922-yil „Inqilob” jurnalda e`lon etildi. 1924-26-yillari har bir bo`limi alohida-alohida kitob holida bosildi. „O`tkan kunlar” yaratilgan davr o`zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o`rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy mamlakatimiz taraqqiyparvar ziyolilari safida turib ona yurtning, millatning taqdiri ustida astoydil qayg`urdi, o`zicha najot yo`lini izladi. Avvaliga u bolsheviklarning yolg`on va`dalariga ishondi, ammo adib bu va`dalar qog`ozda qolib ketayotganini, yovuz mustamlaka siyosati mohiyat e`tibori bilan o`zgarmay qolayotganini, munofiqona tus olayotganini, el orasida buzg`unchilik, fitna, sinfiy-mafkuraviy adovat avj oldirilib, birodarkushlik urushi boshlanib ketganligini, sho`rlik xalq bu

qonli siyosatning qurboni bo'layotganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ayniqsa, Qo`qon muxtoriyatining tor-mor etilishi ko'pgina hur fikrli ziyolilar qatori Abdulla Qodiriyning qalbini larzaga soldi. Adib „O'tgan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi bo'ldi, „tariximizning eng kir, qora kunlari”- yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi „xon zamonlari” -19-asr o`rtasidagi mudhish tarixiy jarayonlar haqida so`z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi.

Habibullo Qodiriy otasi haqida eslar ekan bu asar haqida ham birqancha ma'lumotlar beradi

Abdulla Qodiriy ushbu asarni yozish davomida bir necha marta Marg'ilonga qatnagan ekanlar. Bobomning aytishlaricha, Qodiriy Marg'ilonning turli mahallalari, go'shalarini aylanib, odamlar bilan suhbatlashgan ekanlar. Bobomning otalari mahallaning katta imomi bo'lganliklari uchun ular bilan ham gaplashgan ekanlar. Abdulla Qodiriy o'zlarining xotiralarida ham bu haqda aytib o'tadilar. Ular har bir ko'rgan holatlari, odamlarning suhbatlari va hokazolardan asarda unumli foydalanganlar. Bir kuni Marg'ilon ko'chalarida yurib, birovning uyidan zig'ir yog'i hidini sezganlar va shu holatni ham asarga kiritdim, deydilar.

Asardagi tarixiy shaxslar: Xudoyorxon, Musulmonqul, O'tabboq qushbegi, Normuhammad qushbegi haqiqatda bo'lgan. Muallif asarda otamning aytishlaricha, Normuhammad qushbegi Toshkent beklaridan eng tuzugi bo'lgan ekan, kabi mulohazalarni izoh qilib ham keltiradi. Otabek va Kumushbibi degan asarda berilgan taqdirdagi aniq shaxslar borligi haqida ma'lumotim yo'q. Balki nomlarni almashtirilgan bo'lishi ham mumkin.

Habibullo Qodiriy otasi haqida eslar ekan bu asar haqida ham birqancha ma'lumotlar beradi. Uning aytishicha, Qodiriy har hafta do'stlari bilan gap o'ynasharkan (Toshkanda gap o'ynaymiz deyishadi, Marg'ilonda osh yeymiz deyishadi, o'tirish, mashvarat ma'nosida). Har hafta shu gapga Qodiriy „O'tkan kunlar”ning yangi boblarini olib borar va do'stlariga o'qib berarkanlar. Bir kuni Habibulla aka xonadonlarida gap majlisida asarning oxirgi qismini o'qib berganlarida hamma o'rtoqlari, o'zlariyam yig'lagan ekanlar. Shu voqeadan oldin bir kuni Qodiriy ko'zlarida yosh bilan uydan chiqolmay qolibdilar. Uydagilar hayron bo'lib nima bo'lganligini so'raganlarida, ular Kumushni o'ldirib qo'ydim deb kuyingan ekanlar. Judayam istamagandim, bosh qahramonni o'ldirishni, deb eslaydilar Abdulla Qodiriy.

### **A.Qodiriyning “O'tkan kunlar ” asarining qisqacha bayoni**

„O'tkan kunlar” romanining ma`no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, faravonligi, osoyishtaligi yo`liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. „O'tkan kunlar”



bamisoli ulkan va tiniq ko`zgu, unda o`zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy-ma`naviy dunyosi, bo`y-basti, qiyofasi keng ko`lamda aniq-ravshan gavdalantirilgan. „O`tkan kunlar“, bir qarashda, an`anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning ishqiy sarguzashtlari, fojiasi juda katta mahorat bilan tasvir etilgan. Asardagi ishqiy sarguzashtlar kitobxonni hayajonga soladi, Otabek bilan Kumushning go`zal baxtini barbod etgan omillar kishini chuqur o`yga toldiradi. Muallif oshiqning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni -Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko`z oldimizda gavdalantiradi. Qodiriy ishqiy sarguzashtlar ko`rinishida o`lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o`zaro ichki nizolardir degan fikrni g`oyat ustalik bilan aytadi. Garchi romanda adib shaxs xarakteri va qismatini muhit, sharoit, ijtimoiy muammolar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvir va tahlil etsada, inson shaxsining muhit va sharoitga bog`liq bo`lmagan tug`ma, sirli-sehrli g`aroyib shevalariga ham e`tiborni tortadi. Bu jihatdan bir oila, bir xil sharoitda tug`ilib voyaga yetgan sajiya-xarakter, surat va siymo vajidan ikki olam - egachi-singil Zaynab va Xushro`ybibi obrazlarining talqini g`oyat ibratlidir. Biri mute, itoatkor, nuqul o`zgalar izni bilan ish ko`radi; ikkinchisi esa dadil, mustaqil, o`z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi. Yozuvchi bu ikki shaxs xarakteriga xos tug`ma xususiyatlarni sharhlash bilangina cheklanmaydi, bunday xislatlarning o`sha kimsalar, qolaversa o`zgalar taqdiriga ko`rsatgan ta`siri, fojeiy oqibatlarini ham ifoda etadi. O`zini boshqalar ixtiyoriga topshirib qo`ygan Zaynab shu oqibati tufayli o`z baxtiga zomin bo`libgina qolmay, yana o`sha oqibati tufayli o`zgalar qutqusi orqasida beixtiyor jinoyatga qo`l uradi - Kumushga zahar beradi. Mustaqillik, dadillik - yaxshi xislat, biroq unga xudbinlik aralashsa baloi-azimga aylanishi mumkin. Xushro`ybibi o`z baxti uchun kurashadi; shaxsiy manfaatlari yo`lida hech narsadan qaytmaydi; birovlarining ko`z yoshlari hisobiga, o`zгалarning baxtiqaroligi evaziga o`z baxtini tiklaydi. Romandagi O`zbek oyim obrazi ham nihoyatda tabiiy va go`zal siymolardan biridir. Dumbul tabiat bu ayol o`g`li Otabek, qolaversa kelinlari - Kumush, Zaynab taqdirilarining chigallashib ketishi, oxiri fojiaga yuz tutishida bosh sababchi ekani ayon. Biroq har qancha gunohkor bo`lmasin, o`ta andishali adib uni keskin qoralashga tili bormaydi. Nima bo`lganda ham, O`zbek oyim, baribir ona... Ayni paytda rostgo`y, realist yozuvchi onaning pala-partish, dovdur xatti-harakatlaridan, tabiatidagi ayrim kamchiliklaridan ko`z yumib o`tolmaydi. Bu borada adibga xalqona yumor qo`l keladi. Bu obraz tasviri boshdan-oyoq ajib serjilo - ham kinoya-kesatigalarga, ham ardoq-mehrga to`la yumor bilan yo`g`rilgan. Xullas, „O`tkan kunlar“ romani to`qima qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg`unligi jihatidan ham, mujassamot butunligi va tilidagi nafasati jihatidan ham o`zbek adabiyoti xazinasidagi durdonalar qatoridan o`rin olgandir. „O`tkan kunlar“ o`zbek adabiyotida ilk roman bo`lishining o`zi bilanoq ilgari bosilgan katta qadam edi. Unda realizmning asosiy tamoyillari yuqori badiiy saviyada amalga oshirildi. Roman, umuman, o`zbek adabiyotida yetuk realizmga asos soluvchilik rolini o`ynadi.

## 2.4. Asarda qo'llanilgan stilistik figuralar (troplar, arxaizmlar, istorizmlar, valgarizmlar, varvarizmlar, shevalar)

Asar 20-asr boshlarida yozilganligi sababli bu asarda stilistik figuralar juda ham ko'p qo'llanilgan. Asarning boshlanishi bilan bunga ishonch hosil qilish mumkin. „Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham' yona-dir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

(9-bet „hujra“-xona, „utta“ - shu yerda)

Hasanalining Otabeklar oilasida qulliqda bo'lg'anig'a elli yillar chamasi zamon o'tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a'zosi bo'lib ketkan. Xo'ja-Yusufbek hojigaayniq-sa, xo'jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo'lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va hurmat ko'rar edi.

(8-bet „tom“-to'la ,to'liq)

Otabekka bu to'g'rida siporishlar berib, undan samimiy va'dalar olib yurg'uchi oq ko'ngil bir qul edi.

(8-bet „siporish“-topshiriq)

Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshiladi.

- So'zingizning to'g'rilig'ida shubha yo'q, - dedi,- ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladiring'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a mu- vofiquttab' bo'lsin.

(10-bet „muvofiquttab'“- ta'bga mos, munosib.)

Homidning yuzidagi boyag'i holat yana ham kuchlanib go'yo toqatsizlang'andek ko'rinar edi, Rahmat davom etti:

- Uning havlisi poyafzal rastasining burchagidagi imoratdir. O'zi davlatmand bir kishi; Toshkand ashroflarining ko'blari bilan aloqador bo'lg'anliqdan balki otangiz bilan tanishchiqar.

(12-bet „Ashrof – e'tiborli kishilar , ulug'lar .)

Otabek o'zi bilan ko'rishgan mundaki ikki yot kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko'z ostidan kechirdi. Buni payqag'an Ziyo shohichi Otabekka tanitdi:

- Amakilaringizni siz tanimag'andirsiz albatta, - dedi. - Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor. Bu zot Andijon savdog'arlaridan Akram hoji.

(13-bet „qutidor“- pul b-n o'ynovchi , dollarfurush)

Otabek uyaluv aralash kulimsirab qutidorg'a qaradi:

-Taassufki, eslay olmayman, - dedi. Qutidor tag'in nimadir aytmoqchi bo'lg'an edi,

Akram hoji unga yo'l bermadi.

- Hoji akamiz bu kunda qanday ish bilan mashg'ullar?

Otabek:

- Toshkand begi yonida mushovir sifati bilan turadilar.

(14-bet „Mushovir“- maslahatchi)

Otasining valine'mati bo'lg'an bir bekning zulmini iqror etish haqiqatan ham taajjub-ka loyiq edi.

(15- „vale'nemat“ – ne'mat egasi , boquvchi ,)

- Otangiz Azizbekning mushoviri ekan, - dedi Akram hoji, - nima uchun uni bir oz bo'lsa ham yo'lg'a solmaydir?

- Kechiringiz, amak , - deb Otabek kulimsiradi , - siz otamning mushovirlig'ini boshqacharoq onglag'ang'a o'xshadingiz... Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo'lmoq imkonsiz narsadir. Otam Azizbekning mushoviri va yaqin musohi - bi sanalsa ham va lekin bu juz'iy ishlardaginadir .

(15 - bet „Musohib “ - hamsuhbat )

Bu yerda so'zimni eshitkuchi birov ham bo'lmadi, bo'lsalar ham: “Sening orzungeni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?” deb meni ma'yus qildilar. Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam, so'ngg'idan to'g'ri so'zni aytkanlarini bildim.Darhaqiqat, mozoristonda „hayya alalfalah“ xitobini kim eshitar edi.

( 17 - bet „hayya alalfalah“ – qutqarishga shoshilinglar , najotga kelinglar).

Tuyg'un Homid qo'rboshining nima maqsadi borlig'ini payqadi:

- To'g'ri so'zlaysiz, taqsir, - dedi, dunyoniki hamisha mirikam ikki, shu yetish-maslik balosidan to'yib, ba'zi vaqtlarda kishining dunyodan chiqib ketkusi kelib qoladir. Yaxshikim, dunyoda oshna, og'ayni degan kimsalar bor.Agar shular bo'lma - sachi , kishi allaqachon dunyodan chiqib ketadir. Shuning uchun men og'aynilarni ko'zlarim ustida tutaman, ularni muhtojliq chog'larida ko'rsam, o'zimni garav qo'yib bo'lsa ham ehtiyojdan chiqarishg'a tirishaman.

(90 - bet „Tuyg'un“ - sezgir)

Qo'rboshi tizasi ustiga ko'ndalang qo'yg'an qilichi-ning ikki tarafidan bosib, bir qo'zg'alib qo'ydi:

- Bali, bali, mulla Homid, munday og'aynilarning sadaqasi ketsang ham arzir, — dedi tomoqlarini qirib qo'ydi. — Shu kunlarda o'g'ilchalarning yoshi yetib, sunnati nabiyunani bajo keltirish taqozo etadir... To'y keraklaridan ko'pini tadorik qilg'an bo'lsam ham,yetishmagan yerlari ham ko'b. Shuni sizning kelishingiz oldida o'ylab o'ltirar edim...

(90 – bet „sunnati nabiyuna“ – payg'barning yo'l - yo'rig'i).

Qushbegi bo'lsa negadir uzoq o'ylab o'lturar, tezda gap ochmas edi. Bu holda butun majlis ahli qabziyatda, qirq quloq bo'lib uning og'zig'a tikilgan edilar. Ammo bu holga qo'rboshi jonu dildan tarafdor, shu holda bir necha kunlab emas, yillab so'zsiz qolishni tilar edi.

(100 - bet „qabziyat “ – diqqat bo,lish , dilgirlik ) .

- Talabingiz o'rinlik, - dedi qushbegi, - ammo xasmingizni bu majliska hozirlash uchun vaqtimiz ozdir va lekin bu kun uni qo'lg'a olarmiz va birisi kun beshovingizni bir yerga jam'lab o'z hukmimizni berarmiz, - dedi. Kumushbibiga yuzini o'girdi. - Qizim,sizning bunchalik zakovat va jasoringizga otangiz bilan eringiz har qancha tashakkur aytsalar va o'zlarining mundan so'ngg'i umrlarini sizning baxshishingiz, deb bilsalar arzir. Men ham sizning bu xizmatingiz evaziga eringiz bilan otangizni hozirdan boshlab ozod qildim. Ammo Otabek ish bir

taraflik bo'lg'uncha o'zining qochmaslig'i uchun kafil berishka majburdir. Hamma mol va mulki bilan qutidor Otabekka kafil bo'ldi va qushbening haqig'a duo qilib, uchavlari mahkamadan birgalashib chiqdilar.

( 103 - bet "Xasm" – dushman , g'anim , "Baxshish" – karam , marhamat) .

Ikkisi shu mojaroda edilar. Yo'lakdan kirishdayoq tutka bog'lang'an o'zining otidan odamning kelganini bilgan Homid ayvondan aylanib kirishka sabri chidamay, darichadan oshib uyga kirdida, yigit bilan quchoqlashib ko'risha ketdi. O'lturar-o'lturmas Homid undan so'ray boshladi:

- Xo'-o'-o'sh, Sodiq polvon, ishlar qanaqa, Toshkandda nima gaplar bor?

- Nima gaplar bo'lsin. Toshkandda tinchlik. Bahona bilan Toshkandni ham ko'rib oldiq.

- Eshigini topa oldingizmi?

- Topdim. Aytkaningizdek, uning eshigini Toshkandda har kim bilur ekan.

(177 –bet "Eshigini" - Farg'onada hovlini eshik deydilar ) .

Homid Sodiq bilan Jannat opag'a qarab oldi va: - Shundoqmi? – deb ishonmag'ansumon takror so'radi, undan ijobiy javob olg'ach, yonini kavlashdira berib:

- Jannat opa, - dedi Sodiq horib qorni ochib kelgan ko'rinadir, man ham ertadan beri tomoq yegan emasman, biz Sodiq bilan so'zlashib o'ltursak-da, siz mana shu pulga guzardan chiqib bir chorak et keltirib, sho'rba qilib bersangiz.

(181 – bet "bir chorak" – uch yarim – to'rt qadoq chamasi tosh)

- Men o'zim asli qo'qonliqman. Ota-onamdan yoshliqda yatim bo'lib, tog'amning qo'lida o'sdim. Yoshim 17 - 18 larga borg'andan so'ng o'z kunim o'zimga qolib, bir o'rtog'imning kengashi bilan bundan yigirma yillar burun Marg'ilong'a kelib, bu kungi ustakorimning otasig'a to'quvchilik hunariga shogird tushdim. To'rt yil chamasi qilg'an xizmatimdan so'ng haligi ustakorga xalfa bo'lib ishlay boshladim. Boshqa yigitlardek ortiqcha o'rinsiz sarflarim bo'lmag'ani uchun oz zamon ichida uch-to'rt tilla pullik ham bo'ldim. Ishimga ixlos bilan qarag'anim uchun maning to'qug'an ishlarim o'zgalarnikidan qadrlilik yurar va xalq orasida ham o'tim «usta Alim kichkina» bo'lib shuhratlangan edi.Ma'lumki, bofandalar oldig'a ko'pincha xotin-qizlar kelib, yangi nusxa qidirib yuriydirlar. Maning to'qug'an ishlarim va chiqarg'an nusxalarim hammaga maqbul, ayniqsa xotin qizlar uchun mashhur bo'lib, har doim to'quv do'konim yonidan xotin-qizlar ayrilmas edilar.

(193 – bet "bofanda" – to'quvchi)

Bir necha kun shu yo'sun ikkilanib yurg'ach, nihoyat o'zimga tushunilmagan bir savq ostida va'damni ifoga ham boshlabman, bir kiyim shohi, deb o'ttuz kiyim bo'laturg'an ipakni bo'yash, tanda, arqoq, go'la mashaq-qatlari ko'zimga hech ko'rinibdir. Va'damdan ikki kun ilgariyoq shohini to'qib, uning kelar yo'lini poylar edim, ul kelmas edi.

(194 - bet,, savq " – yo'nalish)

„,Tojdori musulmonon, xoqon ibni xoqon shahan-shohi navjuvon, toji sari xushbaxton huzuri humoyun oliylariga arzi ubudiyat adosidan so'ngra biz faqirul-haqir sadoqatpeshai benazir qullaridin arzi bandalik shuldurkim, navkarlari

doimulavqot ul janobga qipchoq xaloyiqi beparxezidin birar osibi yetarmu deb harosidadirmiz. Va yana ul haromzoda sahroyilarning ro‘yi zamindin taroshlamay turib, ul janobi oliyning ta‘mini amniyatlar ham biz qullaricha ko‘b xavfu xatar ostida bo‘lg‘andek taxmin qilinadir. Shul mulohaza va andishalar ba‘dida biz Toshkand qullaridin bir nechalarimiz bir yerga jam‘ bo‘lishib, duru-daroz tafakkur va tahayyurlar so‘ngg‘ida azbaroyi ul shahanshohning ko‘b zamonlar boshimiz soyabon bo‘lmoqlari umidida bar taqdir ul tojdorning xotiri otir daryo muqotirlariga pisand tushib ijobat og‘oz qilsalar, bir ma‘nini xo‘b va sadoqat maqosidig‘a mahbub deb bildik. Andog‘ki, ul xaloyiqi g‘assoblarni o‘n besh sinni solidin bolig‘ va yetmish yoshidin quyi har bir erkak zotini bilotarahhum qatli om qullaricha sazovordir va illo ul murtaddin badtar jobir va bexiradlardin janobi tojdorg‘a xarro‘z balki har soat xavf bordir. Ammo bul taqrirni o‘shal muayyan qatli om soati yetmag‘uncha har bir bexirat va bog‘iy bo‘lmog‘i yaqin majhul odamlardin po‘shida tutilmog‘i marjudir. Va lekin ul tojdor bir soati sa‘idi muzaffarni muayyan aylab qalamravlaridagi barcha shahar va ko‘ylar, qishloq va kentlarning sadoqati zohir va qalbi tohir qullarig‘a maxfiy nomalarko‘ndirib, sakbachchalarning qatli omig‘a amri oliylarini darig‘ tutmag‘aylar. Ammo Xo‘qandi firdavs monandning o‘zida ul shaqovatpeshalar behad va behisob nufuska molik bo‘lg‘anlari vajhidin biz Toshkand navkarlarining i‘onati beshakku shubha vojibdur.

(282 – bet,, duru-daroz ” –uzundan – uzoq

Tahayyur – hayratlanish

Muqotir – qatra ,tomchi,

Og‘oz – boshlanish,kirishish,ibtido,

Maqosid – maqsadlar, muddalar,

Mahbub – do‘st,

Fassob – zulmkor, bosqinchi,

Bilotarahhum – berahm, shavqatsiz,

Qatli om – qirg‘in,

Murtad – dindan qaytish,

Jobir – jabr qiluvchi, zolim,

Bexirad – aqlsiz, idroksiz,

Taqrir –qaror

Po‘shida – yashirin ,maxfiy

Qalamrav – mulk, qo‘l ostidagi

yerlar,

Tohir – pokiza pok

Tarig‘ tutmoq – ayamoq

Firdavs monant – jannat sifat

Shaqovatpesha – kulfat keltiruvchi

I‘onat – yordam keltirmoq).

Tabib ketdi, Otabek telbalarcha yugurib Kumushning boshig‘a keldi, yuzini ochib manglayini bosdi va o‘pdi... Kumush ko‘zini ochib kuch bilan so‘l qo‘lini erining yelkasiga tashladi... Qo‘lida chaqaloq bilan O‘zbek oyim kirdi.

— Zaynabni chaqir, Zaynabni!

O‘zbek oyim tabib so‘zidan xabardor edi:

— Zaynab! Zaynab!

Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqarg‘an edi. Otabek Kumushni qo‘yib yerdagi atalani oldi:

— Ich muni, ich jalab!

Zaynab orqag‘a tislandi... Otabek kosani unga otdi... Zaynabning kiyimi atala bilan belandi. Shuning ustiga dahlizdan Yusufbek hoji ko‘rindi.

— Ket jalab, ket! Taloqsan, taloq!

«Taloq» so‘zini eshitkan Kumushning ko‘zi yarq etib ochilib, yana yumildi... Hoji voqeani tabibdan eshitkan, shuning uchun hozirgi fojia’ sahnasidan ajablanib turmadi.

(377 – bet „jalab“ – so‘kinish vulgarizm ).

## Xulosa

### Asarning badiiy, tarixiy, tarbiyaviy ahamiyati

Albatta har bir asar haqiqatda bo'lgan voqealarga asoslanavermaydi. Badiiy asarda albatta to'qima syujetlar mavjud bo'ladi. "O'tkan kunlar"ni ham to'liq haqiqat deb bo'lmaydi, unda ham to'qima syujetlar mavjud. Undagi tarixiy voqealar haqiqatdan ham bo'lganligini boshqa kitoblar ham tasdiqlaydi.

Asosiy voqea - Otabek va Kumushbibining muhabbat qissasi haqida ham har xil mulohazalar bor. Ba'zi tadqiqotchilar ushbu qissaning to'qimaligini, haqiqatda Mrg'ilonda Kumushbibi degan judayam go'zal qiz bo'lganligini, lekin yosh bo'lib dunyodan o'tganini aytadilar. Ba'zi tadqiqodchilarning fikricha, haqiqatda shunday voqe'lik bo'lgan. Hatto hozirda Marg'ilonda Kumushbibi va Otabekning avlodlari borligini ta'kidlashadi. Muallif esa o'z asari so'nggida shunday deydi:

*"Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek tog'risni surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qquz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib undan ikki o'gul qolibdir. Og'ullaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o'luk-tirigi ma'lum emas, deydilar"*

Abdulla Qodiriy ushbu asarni yozish davomida bir necha marta Marg'ilonga qatnagan ekanlar. Bobomning aytishlaricha, Qodiriy Marg'ilonning turli mahallalari, go'shalarini aylanib, odamlar bilan suhbatlashgan ekanlar. Bobomning otalari mahallaning katta imomi bo'lganliklari uchun ular bilan ham gaplashgan ekanlar. Abdulla Qodiriy o'zlarining xotiralarida ham bu haqda aytib o'tadilar. Ular har bir ko'rgan holatlari, odamlarning suhbatlari va hokazolardan asarda unumli foydalanganlar. Bir kuni Marg'ilon ko'chalarida yurib, birovning uyidan zig'ir yog'i hidini sezganlar va shu holatni ham asarga kiritdim, deydilar.

Asardagi tarixiy shaxslar: Xudoyorxon, Musulmonqul, O'tabboq qushbegi, Normuhammad qushbegi haqiqatda bo'lgan. Muallif asarda otamning aytishlaricha, Normuhammad qushbegi Toshkent beklaridan eng tuzgi bo'lgan ekan, kabi mulohazalarni izoh qilib ham keltiradi. Otabek va Kumushbibi degan asarda berilgan taqdirdagi aniq shaxslar borligi haqida ma'lumotim yo'q. Balki nomlarni almashtirilgan bo'lishi ham mumkin.

Habibullo Qodiriy otasi haqida eslar ekan bu asar haqida ham birqancha ma'lumotlar beradi. Uning aytishicha, Qodiriy har hafta do'stlari bilan gap o'ynasharkan (Toshkanda gap o'ynaymiz deyishadi, Marg'ilonda osh yeymiz deyishadi, o'tirish, mashvarat ma'nosida). Har hafta shu gapga Qodiriy "O'tkan kunlar"ning yangi boblarini olib borar va do'stlariga o'qib berarkanlar. Bir kuni Habibulla aka xonadonlarida gap majlisida asarning oxirgi qismini o'qib berganlarida hamma o'rtoqlari, o'zlarini yig'lagan ekanlar. Shu voqeadan oldin bir kuni Qodiriy ko'zlarida yosh bilan uydan chiqolmay qolibdilar. Uydagilar hayron bo'lib nima bo'lganligini so'rganlarida, ular Kumushni o'ldirib qo'ydim deb kuyingan ekanlar. Judayam istamagandim, bosh qahramonni o'ldirishni, deb eslaydilar Abdulla Qodiriy. Bu asar o'zbek kitobxonlariga judayam ma'qul tushgan

edi. Hatto siyohi qurimay turib, odamlar o'qigani olishardi bu kitobni. Mahallalarda ataylab, choyxonalarda, kutubxonalarda shu odamlar to'planib, shu kitobni o'qishgan ekan.

Izzat Sulton yozadi:

*"Men Qodiriydan: "O'tkan kunlar" romaningiz voqeyi asarmi, deb so'radim". "Yo'q, - dedilar u kishi, - romandagi besh-o'n foiz ayrim tarixiy voqealar, shaxslargina voqeyi. Qolganlari yozg'uvchining mahorati..."*

Asarning tarbiyaviy ahamiyati juda ham beqiyosdir. Bunga asardan hohlaganicha misol keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda ham oilalardagi ota – ona, farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda ham bemalol qo'llasa bo'ladigan jihatlari beqiyosdir.

„ Otabek mehmonlarni tanchaga o'tquzib, fotihadan so'ng Hasanalidan so'radi:

— Tuzukmisiz, ota?

— Xudoga shukur, — dedi Hasanali, — boyag'idan bir oz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.

— Ba'zi yumushlar buyursam...

— Buyuringiz, o'g'lim.

— Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

— Xo'b, begim.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashqandan keyin so'radi:

— Bu kishi kimingiz bo'ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:

— Qulimiz.

Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

— Qulingiz?

— Shundog'."

Otabekning quliga nisbatan munosabini qaysi asarda uchratish mumkin .

Yana Otabek va ota – onasi o'rtasidagi suhbatni ham keltirish mumkin .

Bir oylab kechikkandan so'ng Otabek qaytib keldi va bu kelishining vijdon azobi va tilamagan bir taklifni eshitish uchungina emas, balki qabul qilish uchun bo'lg'anlig'ini payqadi. Ul bu gapni onasining ilgarigi achimsiq so'zlarini va arazlarini tugalganidan va o'rniga chuchuk so'zlar, silliq muomalalar bitib «eson-sog' kel-dingmi, bolam»laridanoq sezgan edi. Bunday bo'lmag'ur taklifni eshitmas uchun o'zini chetka olib, otasi, ayniqsa onasig'a yo'liqishdan qochib yurishka majbur bo'ldi. Ikki oradag'i bu qochish-quvish ishi uzoqqa cho'zilmay, bir kun mehmonxonada ota-o'g'ul so'zlashib o'lturganning ustiga O'zbek oyim kelib kirdi va o'lturmasdanoq hojiga imlab qo'ydi. Bu imqo'qni Otabekpayqamag'an bo'lsa ham lekin anuv gapni aniq shu majlisda ochilishig'a ko'zi yetib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi. O'zbek oyim kelib kirgandan so'ng Yusufbek hoji birnecha vaqt o'ylab qoldi. O'zbek oyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi. Anchagina so'zsiz o'lturg'andan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi.



— O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek ma‘lumki, ularning „qilib qo‘ygan yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini“ albatta bilar edi. Shundoq ham bo‘lsa bilmaganga solindi:

— Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas, — dedi.

Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi.

Istehzo aralash xotinig‘a qarab oldi. Yana orag‘a jimjitlik kirdi. Bu so‘zsizlik ma‘nosig‘a O‘zbek oyim tushuna olmag‘an edi. Bir oz qarab o‘lturg‘ach, yuragi qaynab ketkandek bo‘ldi:

— Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig‘a unashib qo‘ydiq... Endi san bilan to‘y maslahatini qi-lishmoqchi edik...

Otabek onasig‘a bir og‘iz so‘z demay, ma‘nolik qilib otasig‘a qarab oldi. Hoji uyatliksumon „shundog“ deb qo‘ydi.

— Sizlarni ranjitib bo‘lsa ham bir martaba uylangan edim-ku? Endi...

— San uylansang biz ranjirmidik? — dedi kulib hoji.

— Ranjimasalaringiz...

Hoji tuzuklanib o‘lturib oldi:

— Bu ranjishdan emas, hojatdan o‘g‘lim.

— Nima hojat?

—Hasanalining so‘ziga qarag‘anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan.

O‘g‘il o‘sdirib katta qilg‘an onangning bo‘lsa oldig‘a kelin qo‘yg‘usi keladir...

Otabek onasig‘a qaradi:

— Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo‘lardi-ku, — dedi.

Asarda adib asar qahramonlari ularning gap –so‘z ohanglaridan qanaqa tarbiya ko‘rganlarini, qanday inson ekanliklarini tasvirlab bera oladi:

Otabek Rahmatning so‘zini ixlos bilan eshitdi va «sen nima deysan?» degandek qilib Homidga qaradi.

— Jiyan, — dedi Homid Rahmatka qarab, — boshlab uylanishing albatta otanonang uchun bo‘lib ulardan ranjib yurishingni o‘rni yo‘q. Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol. Xotinim muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.

Rahmat Otabekka kulimsirab qaradida, tog‘asig‘a javob berdi.

— Xotin ko‘paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo‘lsin? — dedi.

— Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha, eng ma‘qul ish. Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig‘ingiz yo‘q.

— Seningdek yigitlar uchun albatta bitta xotin ham ortiqchaliq qiladir, — deb kuldi

Homid. — Ko‘b xotin orasida azoblanish o‘zi nima degan so‘z? Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o‘rtasida turib janjalg‘a to‘ygunimcha yo‘q, ammo xotinni uchta qilishg‘a ham o‘yim yo‘q emas.

Bu yerda adib Homidning qanday inson ekanligini tasvirlab berayapdi.

Yana sodda, ammo kekkaygan, maqtantoq ayollarni O‘zbekoyim qiyofasida tasvirlaydi: O‘zbek oyim marg‘ilonliq tomonidan sihrlangan o‘g‘lig‘a qarshi qizishib ketdi. Bir yillardan beri ichiga yig‘ib kelgan kinasini to‘kib berdi:

— Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag‘an edim... San bizning naslimizni ko‘tarish o‘rniga, yerga urib bulg‘ading. Biz sani Marg‘ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o‘ylamag‘an edik, adabsiz... o‘zingga qolsa shu marg‘ilonliqni xoting‘a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!..

Otabek ham qizishdi:

— Xotin bo‘lmasa nima, axir?!

— Qoshliq, ko‘zlik bir andi!

— Andi deganingiz nima o‘zi?

Yusufbek hoji o‘g‘lini bosish o‘rniga javob ber, degandek qilib iljaygan holda xotiniga qaradi. O‘zbek oyim «andi» ma‘nosini bildirib, andilarning sihrini rad qilish uchun bir oz tutiliqib qiynaldi:

— Andi... andi... o‘zi xitoymi, nima balo... o‘zi qalmoqdan tarqag‘an bo‘ladir...

Tushunmagan bo‘lsang, lo‘lilarning bir toyifasi...

O‘zbek oyim uncha-muncha to‘yu azalarga «kavshim ko‘chada qolg‘an emas» deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o‘z to‘ylarini O‘zbek oyim ishtiroki bilan o‘tkazib olsalar, o‘zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab «maning to‘yimni bek oyim o‘z qo‘llari bilan o‘tkazdilar» degan jumlaning majlislarda iftixor o‘rnida so‘zlab yurar edilar. O‘zbek oyimning obro‘si yolg‘iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o‘rda xonimlari ham ehtirom qilib o‘zlarining «onaxonlari» deb bilar edilar. Shunga ko‘ra qaysi bir vaqtlarda o‘rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko‘ndalang qilib «o‘rda begi oyim buyurdilar», deb O‘zbek oyimning yasanib chiqishini kutar edilar. Bu tomon bilan qaysi bir majlislarda O‘zbek oyim xotinlarning eslarini ham chiqarib yuborar edi: «Kecha o‘rda bek oyimdan menga arava kelgan ekan, fe‘lim aynab turg‘an edi, bormay aravadan bo‘sh qaytardim... Bo xudo, o‘rda bekachi bo‘lsa o‘ziga, dedim» der edi. Ikkinchi vaqtda: «O‘tkan kun o‘rdaga borg‘an edim; xonimlar yotib qolasiz deb qo‘ymadilar, noiloj bir kecha yotib keldim», deb so‘z orasig‘a qistirib ketar edi. Bu so‘zlarni eshitkuchi xotinlar o‘zlarining qandog‘ bir xotinning suhbatiga noil bo‘lg‘anlarini o‘ylab, O‘zbek oyimning ehtiromini tag‘in ham kuchaytirar edilar.

Adib Yusufbek hoji tilida Kumushga shunday baho beradiki, beixtiyor siz ham uning chiroyiga lol qolasiz:

Kumush uyalib zo‘rg‘ag‘ina salom berdi va Yusufbek hojining yaqinig‘a kelib bo‘yin egdi. Hoji qo‘li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayig‘a tegizib olg‘an o‘z qo‘lini o‘pdi:

— Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an

ekanmiz-da, — deb tevaragiga qarab kulindi va qo‘lini duog‘a ochdi. — Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliqlaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Olloh taolo yoshlarg‘a tinch va barakatlik umr bersin. Ilohim, taqabbul duo...

Haqiqatdan ham asar o‘zbek romanchiligining betakror durdonasidir. Asarni qancha takror va taror o‘qisangiz yangi ma’no yangi voqe’lik guvohiga aylanasiz, hayratingiz orta boradi. Bunday asarlar yaratish uchun qaytadan yangi Qodiriylar dunyoga krlish kerak.

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. A. Qodiriy. „O'tkan kunlar” romani “Sharq” nashriyot – matbaa Toshkent 2013 – yil
2. R. Qo'ng'irov, E. Begmatov, Y.Tojiyev “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari”.“O'qituvchi” Toshkent 1992 – yil
3. N. Elmurodov “O'qituvchining nutq madaniyati” “Samarqand” 2004 – yil
4. H.Qodiriy “Otam haqida” “O'qituvchi” Toshkent 1996 – yil
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
6. [www.ziyoNet.com](http://www.ziyoNet.com)